



YOSHLAR TARBIYASIDA JADID G‘OYALARINING MA’NAVIY- MA’RIFIY AHAMIYATI

Patiyev Xoldor Ikromovich

Termiz davlat pedagogika instituti Falsafa, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi
kafedrası o‘qituvchisi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada jadid mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga oid ma’naviy-ma’rifiy qarashlari tahlil qilingan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va Abdusalom Azimiy asarlarida ilgari surilgan ilm-ma’rifat, axloqiy kamolot, milliy ong va ijtimoiy mas’uliyatga oid g‘oyalar tadqiq etilgan. Shuningdek, jadidlarning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi hamda zamonaviy islohotlar bilan qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jadidlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasining muhim nazariy-metodologik asoslaridan biri bo‘lib xizmat qilishi asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** jadidchilik, yoshlar tarbiyasi, ma’rifatparvarlik, ma’naviyat, ta’lim, Yangi O‘zbekiston, Taraqqiyot strategiyasi.*

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida shakllangan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, ma’rifat va taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surgan ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy harakat sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Jadidlar millat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta’lim va tarbiyani e’tirof etib, yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalashni o‘z faoliyatlarining bosh maqsadiga aylantirdilar. Ularning qarashlarida yoshlar jamiyatni yangilovchi va taraqqiyotga yetaklovchi asosiy kuch sifatida talqin etiladi.



Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’kidlaganidek, “har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig‘a tavassul va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlaydi”¹. Mazkur fikr jadidlarning yoshlar salohiyatiga bo‘lgan yuksak ishonchini ifodalaydi. Mazkur maqolaning maqsadi jadid mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga oid qarashlarini ilmiy tahlil qilish hamda ularning zamonaviy taraqqiyot jarayonlaridagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiylik, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Jadid mutafakkirlarining pedagogik va publitsistik asarlari hamda Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasiga oid manbalar ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. Jadidlar yoshlar tarbiyasining asosiy omili sifatida ilm-ma’rifatni e’tirof etganlar. Behbudiy “Yoshlarga murojaat” maqolasida yuzaki bilim bilan cheklanib qolishni tanqid qilib, yoshlarni chuqur bilim olishga da’vat etadi: “sizlardan aksaringiz ruscha bir oz o‘qub-yozmoqg‘a va yoinki faqat so‘ylamoqqa qodir bo‘lubsiz va bu ozgina zamoniylar bilgu sababidan vazifa olib...”² jamiyatga xizmat qiladigan yoshlarga ularni o‘rgatishni da’vat qiladi.

Jadidlar nazarida ta’lim diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligida tashkil etilishi lozim. Behbudiy bu haqda shunday yozadi: “islomiyat shunday bir diniy matn va qobili taraqqiydurki, na qadar ilmiy zamoniylar ko‘b o‘qusa, insonni yana diniy islomg‘a shuncha aqidasi mustahkam bo‘lur”³.

¹ Behbudiy M. Muxtarom e’shlariga murojaat. Oйна. 1914 йил, 41-сон , —Б:9 7 0-972.

² M. Behbudiy. Oйна ж., 1914 йил, 21-сон , -Б:390—391.

³ Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Tўplovchi, sўzbo’shi va izohlar; B. Qosimov. — 2-nashri, tuzatilgan va tўldirilgan.—Т.: Маъnaviyat. 1999.—Б:169



Ularning qarashlarida ijtimoiy tengsizlikning asosiy sababi ham bilim darajasi bilan izohlanadi: “sizdan besh, hatto, yigirma daʼfa ziyoda vazifa olur... Muning sababi nadur?... ilmi zamoniysi bizdan ziyoda.

Abdurauf Fitrat yoshlar tarbiyasini jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya birligida koʻradi. U “Har bir kishi shu uch quoldan birisisiz maydonga kirsas, albatta magʻlub boʻlishi tabiiydir”⁴, deya barkamol shaxsni shakllantirishning kompleks yondashuvini asoslaydi.

Abdulla Avloniy tarbiyani jamiyat taraqqiyotining bosh omili sifatida baholab: “Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz boʻlib oʻsdimi... bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qoʻl uzatmak kabidur”, deb yozadi. Shuningdek, u fikr tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratib: “Fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bogʻliqdur”⁵, deya taʼkidlaydi.

Abdusalom Azimiy esa oilaviy tarbiyaning ahamiyatini koʻrsatib, “bolaga ona birinchi omil va murabbiydir”, degan fikrni ilgari suradi. Uning nazarida maʼrifatli ona barkamol avlod tarbiyasining muhim shartidir.

Muhokama. Jadidlarning yoshlar tarbiyasiga oid qarashlari bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini saqlab qolganligini koʻrsatadi. Ularning ilm-maʼrifat, axloqiy kamolot va ijtimoiy masʼuliyat haqidagi gʻoyalari Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlari bilan uygʻunlashadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, taʼlim sifatini oshirish, maʼrifatli

⁴ Fitrat.A. *Oila yoki oila boshqarish tartiblari*. Toshkent: Maʼnaviyat, 1998.–B.118

⁵ Avloniy, A. *Turkiy Guliston yoxud axloq*. Toshkent: Oʻqituvchi.2000.–B.158



jamiyat qurish va yoshlar siyosatini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Bu jihatlar jadidlarning “ilm-ma’rifat orqali taraqqiyot” konsepsiyasining zamonaviy davrdagi mantiqiy davomidir. Shuningdek, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” g‘oyasi jadidlar orzu qilgan ma’rifatli va taraqqiyparvar jamiyat qurish maqsadlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadid mutafakkirlari yoshlar tarbiyasini milliy taraqqiyotning asosiy omili sifatida baholaganlar. Ular ilgari surgan ilm-ma’rifatga intilish, axloqiy poklik, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy mas’uliyat g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunida jadidlarning ma’rifatparvarlik va islohotchilik g‘oyalari davom etayotganligi kuzatiladi. Shu sababli jadid merosini chuqur o‘rganish va undan yoshlar tarbiyasida samarali foydalanish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.–B.276
2. Бехбудий М. Мухтарам ёшларга мурожаат. Ойна. 1914 йил, 41-сон , —Б:9 7 0-972.
3. М.Бехбудий. Ойна ж., 1914 йил, 21-сон , -Б:390—391.



4. Бехбудий М. Танланган асарлар. Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар; Б. Қосимов. — 2-нашри, тузатилган ва тўлдирилган.—Т.: Маънавият. 1999.— Б:169
5. **Fitrat.A.** *Oila yoki oila boshqarish tartiblari*. Toshkent: Ma'naviyat, 1998.—В.118
6. Avloniy, A. *Turkiy Guliston yoxud axloq*. Toshkent: O'qituvchi.2000.—В.158